



MA’LUM MAVZU DOIRASIDAGI PAREMALARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI VA KONSEPTUAL BELGILARI

Gulnoza Turdiyeva Sayfullayevna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: turdiyeva806@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995573>

Annotatsiya: Har bir milliy til barcha imkoniyatlari bilan milliy qiyofaning ifodasi sifatida maydonga chiqadi. Ushbu ishda leksikografik manbalar, maqol, matallarni o‘rganish asosida «Muhabbat» leksemasi va uning ma’nodoshlari qurshovidagi tushunchalarni ifodalovchi xalq durdonalarining milliy dunyoqarashni aks ettirishdagi o‘ziga xos xususiyatlarini, ya’ni ma’no yaqinliklarini, lingvoadabiy hodisalarning imkoniyatlarini hamda ulardagи o‘ziga xos konseptual belgilarni o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: konseptual belgi, parema, maqol, matal, aforizm, semantik jihat, leksik-semantik tahsil, lingvomadaniyat,

Ma’lumki, xalq iboralari, aforizmlari, maqol, matallar tilshunoslikning nisbatan keyinroq ajralib chiqqan bo‘limi paremiologiyada o‘rganiladi. Paremiologiya (yunoncha: paroimia — hikmatli so‘z, zarbulmasal va ... logiya) — ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni — paremalarni o‘rganadigan fan sohasi.¹ Tilshunoslikda ma’lum tilda so‘zlashuvchilar uchun paremalar u qadar murakkab hodisa sanalmasligi mumkin, ammo boshqa tillarga tarjima qilishga to‘g‘ri kelganda, odatiy gaplar kabi ma’nosini asliday chiqarib bo‘lmaydi. Chunki paremalar har bir xalqning o‘zligiga, tiligagina xoslikni ifodalaydi - strukturasi, intonatsiyasi, semasi va grammatic xususiyatlari bilan o‘zga tillardan tubdan farqlanadi. Paremalar sirasidan maqollar o‘z ko‘لامи, mazmun tugalligi va unumдорлиги, xalq tilida ko‘p ishlatalishi, shuningdek, xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janri ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Juhon tilshunosligining yetakchi paremiologi Wolfgang Mieder ta’rifiga ishora qilib -“Maqol – tajriba farzandi”, “Maqol – to‘g‘ri so‘z”, "Maqollar – aniq so‘z" deydi.²

O‘zbek xalq maqollarining mavzu doirasi boy va xilma-xil, chuqur va mukammal mazmunli bo‘lib, ularda xalqning orzu-umidlari, vatanparvarlik,

¹ Berdiyorov H., Rasulov R., O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati, T., 1984.

² Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press, 119 p.3Mieder, W. 2005



insonparvarlik xislatlari obrazli ifodalanadi va ma'naviy boyligimizning qimmatli xazinasini tashkil etadi. Bu janrni xalqimiz “So‘z ko‘rki maqol”, “So‘z sarasi-maqol”, “Yaxshi naql-tomiri aql” deb bejizga ta’riflamaydi. Maqollarning, ayniqsa, mazmun nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etilishi madaniyatshunoslik, etnolingvistika va etnografiya singari fan sohalari bilan ham bevosita bog‘liqligini ifodalarydi. Madaniyat, odatda, til vositasida bir avloddan boshqasiga o‘tadi. Ijtimoiy taraqqiyotning ilk bosqichlarida xalq og‘zaki ijodi, xususan, bunday ijodning eng ko‘zga ko‘ringan janrlaridan biri bo‘lgan maqollar vositasida amalga oshirilgan.

Maqollar lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganilar ekan, tilshunoslik doirasida milliy madaniyatning o‘ziga xos tomonlarini ya’ni til-madaniyat munosabatlarining umumiyligini o‘rganishda antropotsentrik tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Til dunyoqarash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ikki jarayonda ishtirok etadi. Birinchidan, u dunyoqarashning lingvistik tasvirini shakllantiradi, unda inson nuqtai nazarining eng chuqur qatlamlari shakllanadi. Ikkinchidan, tilning o‘zi maxsus leksikadan foydalanib, kishilarning hayotga umumiy munosabatini, ya’ni qarashlarni ifodalarydi, o‘zi mansub bo‘lgan madaniyat elementlarini tilga oladi. Masalan, “Muhabbat” ma’nosini tashuvchi maqollarda “muhabbat” semasi va uning qurshoviga kiruvchi so‘zlar orqali kechinmalarning nihoyatda turfa tuyumlari hamda turmush mahoratlari xalq donoligi nazaridan qochmagan, Biz quyida keltiradigan “Muhabbat” konseptiga aloqali maqollarda yuqorida sanab o‘tilgan barcha xususiyatlar bilan bir qatorda milliy madaniy konseptual belgilarni ham farqlab ko‘rsatish mumkin: “Ishqsiz ko‘ngil — o‘tsiz o‘choq” “Muhabbatsiz umr — o‘t olmas ko‘mir” (“Maqol - jamiyat “parchasi”ning modelidir” ta’rifi ayni maqollar uchun ham mos), maqollarida **o‘t** so‘zi milliy-madaniy konseptual belgi bo‘lib kelgan bo‘lsa, “Ishqsiz ko‘ngil — egasiz uy”, “Suyganing bilan bo‘lsang, qora uy ham ola bargoh (rang-barang) ko‘rinar” kabi maqollarda ko‘ngil ishi hayotiy turmush tajribalariga muqoyosalangan bo‘lib, **uy** so‘zi o‘ziga xos konseptual belgi sifatida qo‘llanilgan.

“Ko‘z ko‘rmasa, ko‘ngil sevmas”, “Mehr-ko‘zda”, “Ko‘z qayerda bo‘lsa, mehr ham shu yerda bo‘ladi”, “Ko‘z qarisa ham, ko‘ngil qarimas”, “Muhabbat — bitta, ko‘z — to‘rtta”, “Muhabbatning ko‘zi ko‘r”. Muhabbat-qalb ishi, ammo ko‘z orqali ko‘ribgina sevish insonga xos, ilohiy sevgida his qilinib, tushunib muhabbat qo‘yish muhabbatning oliy darajasi” ishqil oliy” hisoblanadi. “Muhabbat” konseptiga aloqali ushbu maqollarda **ko‘z** so‘zi milliy madaniy konseptual belgi funksiyasini bajargan.



Shuningdek, “Ko‘ngildan ko‘ngilga yo‘l bor”, “Yoshlikda bergen ko‘ngil, ayirlmas balo bo‘lur”, “Ko‘ngil gulini sevgi suvi sug’orar”, “Ko‘ngil ko‘ngildan suv ichar” kabi “Muhabbat”konseptiga aloqali ayni maqollarda esa **ko‘ngil** so‘zi o‘ziga xos konseptual belgi sifatida qo‘llanilgan.

“Ishq — muqaddas o’t, Havas — loyqa suv”, “Muhabbat —davosiz dard”, “Muhabbat — dil mevasi”, “Sevganing qoshingda bo‘lsa, senga cho‘l - bog‘i eram”, “Sevgan bilan qo’shilish —Dutorga tor taqqanday. Sevmagan bilan qo’shilish — Zaharli ilon chaqqanday” kabi “muhabbat” semasi doirasida shakllangan maqollarda **o‘xhatishlar** berilgan. Ularning ifodasida muhabbat insonning to‘laqonli yashashi uchun asosiy kategoriya darajasiga ko‘tarilgan. Shuningdek, o‘xhatishlar orqali xalq hayotining haqiqiy bir bo‘lagi – kundalik turmush vositalaridan unumli foydalanilganlikni kuzatish mumkin.

“Ochlik osh tanlatmas, Oshiqlik yosh tanlatmas”, “Muhabbat chiroy tanlamas, Uyqu — joy”, “Muhabbat husn tanlamas, Uyqu — o‘rin”, “Oltin zanglamas, Sevgi qarimas”, “Muhabbatsiz umr — o’t olmas ko‘mir”, “Suyganimning ko‘ngli uchun Suymasimni suyarmen. Suyganimning ko‘ngli uchun Suymas oshni icharman” singari maqollarda muhabbatning imkoniyatlari ma’nodosh so‘zlarga muqoyasa qilinar ekan, ritmik shaklni ta’minalash uchun, qofiyadosh so‘zlardan foydalanilgan: umr-ko‘mir; osh-yosh; chiroy-joy, husn-o‘rin kabi. Bu esa maqollarning oson aytilishi va xotirada uzoq saqlanishini ta’minalaydi. Shuningdek, “Kuygan o’lanchi bo’lar, Suygan — laparchi” maqolida barcha so‘zlar qofiyadosh bo‘lib(tarse), 2-qismi to‘liqsiz gap holida shakllangan bo‘lsa, “Ishq yo‘lida shoh ham bir, gado ham”, “Bir etikka ikki oyoq sig’mas, Bir yurakka — ikki muhabbat”, “Ikki pichoq bir qinga sig’mas, Ikki sevgi — bir ko‘ngilga” yoki “Muhabbat yosh tanlamas, sevgi chiroy” singari 2- qismi to‘liqsiz gap holida ifodalanish ko‘plab maqollar uchun doimiylik xarakter kasb etganini kuzatish mumkin. Umuman, jamiyat moddiy va ma’naviy faoliyatining barcha sohasi maqollarda aks etadi. “Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni”, “Yurt sevganni qiz sevar “, “Sevganing qoshingda bo‘lsa, senga cho‘l - bog‘i eram”, “Suyganan bilan bo‘lsang qora uy ham ola bargoh ko‘rinar” singari vatanparvarlik, vatan muhabbati bilan yo‘g‘rilgan maqollardagi samimiyat; “Yurak do‘sti to‘satdan tug‘ilmaydi”, “Sevgi qasos bilmaydi, do‘stlik esa xushomad” kabi do‘stlik sevgisi haqidagi maqollardagi sadoqat va oddiylik; “Ko‘ngil ko‘ngildan suv ichar”, “Muhabbat yosh tanlamas, sevgi chiroy”, “Ishq yo‘lida shoh ham bir, gado ham”, “Ikki pichoq bir qinga sig’mas, Ikki sevgi- bir ko‘ngilga” singari insonning insonga muhabbati haqidagi maqollarda ezgulik, birlik ifodasi...



Maqollardan ko‘rib turibmizki, ular qaysi zamon mahsuli bo‘lmashin, har bir davr uchun dolzarb qiyofa kasb etaveradi, buni oddiy turmush tarzining yaqinligi, insonlar hayotidagi munosabatlarning o‘xshashligi va umuman, hayotning qaysi davr bo‘lishidan qat’i nazar bir xil vaziyatlar, holatlar hosil qilishi bilan izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyorov H., Rasulov R., O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati, T., 1984.
2. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. Т.:ФАН, 2006 // <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-70996.htm>
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Ma’nolar maxzani, T., 2001 y.
4. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press, 119
5. <https://minikar.ru/uz/proverbs/poslovicy-i-pogovorki-o-lyubvi-statusy-pro-lyubov-so-smyslom-krasivye/>.
6. <https://in-academy.uz/index.php/zdaf/article/download/4475/3762>